



\_\_\_\_\_ hokimligi  
maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi  
\_\_\_\_\_ maktabgacha va  
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi  
\_\_-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
5-"\_\_" sinf rahbari  
\_\_\_\_\_ning

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab  
ta'limi vazirining 2024-yil 23-avgustdagi 273-sonli  
buyrug'i 7-ilovasi asosida tayyorlangan  
20\_\_-20\_\_-o'quv yili uchun

# **SINF SOATLAR ISH REJASI VA DARS ISHLANMALARI**



Har qanday jamiyatda barkamol avlodni tarbiyalash, voyaga yetkazish va uni ma'lum bir kasbga yo'naltirish og'ir va mashaqqatli mehnat evaziga amalga oshiriladi. Bu mashaqqatli mehnat uzluksiz ta'lim va tarbiyaviy faoliyatning mahsulidir. O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan islohotlar, bugungi kun talablariga mos odobli, axloqiy fazilatlariga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib berishni talab etadi.

Barkamol avlod tarbiyasi mamlakatimizda avvalo o'qituvchilar zimmasiga yuklatilgan eng olijanob vazifadir. Komil inson, o'qituvchining mashaqqatli mehnati namunasidir. Inson qalbiga yo'l avvalo ta'lim-tarbiyadan boshlanadi. Dunyo imoratlari ichida eng sharaflisi maktab bo'lsa, kasblaming ichida eng sharaflisi o'qituvchilik va murabbiylikdir.

Zamonaviy sinf rahbarining faoliyati birinchi navbatda o'z sinfidagi o'quvchilar bilan ishlashga qaratilgan. U har bir bolaning yoshi va individual xususiyatlarini o'rganish, kognitiv qiziqishlarni rivojlantirish va rag'batlantirish uchun motivatsiyani shakllantiradi.

## **Sinf rahbarining asosiy vazifalari**

o'quvchilarning maksimal darajada rivojlanishi uchun imkoniyatlarini ochish, har bir o'quvchi shaxsining o'ziga xosligini saqlab qolish, aqliy, ma'naviy va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni yaratishdir.

## **O'z faoliyatining texnologiyasini puxta egallagan haqiqiy sinf rahbari:**

- har bir o'quvchida o'ziga xos, betakror shaxsni ko'ra biladigan dono tarbiyachidir;
- har bir o'quvchini pedagogik tashxis asosida chuqur o'rganadi; u bilan munosabatlarni uyg'unlashtiradi;
- shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga asoslangan holda bolalar jamoasini shakllantirishga yordam beradi.

## **Kasbiy mahoratga ega bo'lgan sinf rahbari yosh avlod shaxsini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. O'quvchi uchun u:**

- ustoz va bog'lovchi bo'g'in;
- axloqiy charchoqdan va ma'naviy halokatdan himoyachi;
- birgalikda turli tadbirlar orqali sinfda hamkorlidagi munosabatlarni quruvchi;
- har bir bola rivojlanishi va o'zini namoyon qilishi mumkin bo'lgan muayyan sharoitlarni yaratuvchi;
- psixolog bilan birgalikda o'quvchining ijtimoiylashuv jarayonidagi yordamchi;
- kundalik hayot va faoliyatni tashkil qilishda ustoz, maslahatchi va do'st
- hayotning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jihatlarini qabul qilish va tushunishda yordamchi
- rahbarlar, oila va atrofdagi jamiyatning birgalikdagi sa'y- harakatlarini muvofiqlashtiruvchi shaxs
- bolalar va o'smirlar guruhlarida qulay mikroiklim asoschisi





## ZAMONAVIY SINIF RAHBARINING KASBIY PORTRETI:

boshlovchi (kapitan)-  
rahbar va uning sinfi  
o'quvchilari bilan  
ishlaydigan pedagoglar  
jamoasining rahbari



o'z vazifalarini bajarish  
bilan birga  
"o'quvchilarga yaqin  
bo'lish va ularga barcha  
xatti-harakatlari bilan  
madaniy xulq-atvor  
namunalarini  
ko'rsatish" imkoniyatiga  
ega bo'lgan shaxs

ijodiy tashabbuskorlik,  
fuqarolik, mas'uliyat va  
bugungi kunda jamiyat  
tomonidan talab qilinadigan  
fazilatlarni rivojlantirish  
uchun sharoit yaratishga qodir  
bo'lgan rahbar-navigatör  
(boshlovchi)

vaziyatga, bolaning iltimosiga  
va uning mustaqillik  
darajasiga qarab, himoyachi,  
vasiy, yordamchi, hamrohlik  
qiluvchi, uni  
qo'llab-quvvatlovchi rollarini  
mahoratli bajarishga qodir  
bo'lgan rahbar

bolalikning ijtimoiy-madaniy ahamiyatini  
tan olgan va o'sib borayotgan shaxsning  
huquq va manfaatlarini hurmat qilgan  
holda, uning tarbiyasi va shaxsiy  
rivojlanishi vazifalarini ustuvor deb  
biladigan kasbiy mahoratga ega rahbar

## **Sinf rahbarligiga tanlovning asosiy mezonlari**

- kamida 3 yillik pedagogik ish stajiga ega bo'lgan
- maktabda asosiy xodim sifatida faoliyat olib borayotgan;
- boshqaruvchilik qobiliyatiga ega bo'lgan;
- o'quvchilar bilan ishlash jarayonida mas'uliyat bilan yondasha oladigan;
- umumta'lim muassasalarida soatbay (shu jumladan o'rindoshlik] asosda faoliyat olib boruvchi o'qituvchilarga sinfga rahbarlik qilishga yo'l qo'yilmaydi;
- boshlang'ich sinflarda sinf rahbarligi boshlang'ich sinfga birlashtirilgan o'qituvchilarga yuklatiladi

## **Sinf rahbarlarining asosiy vazifalari:**

- odob-axloq va ichki tartib qoidalariga muvofiq muomala va kiyinish madaniyatiga amal qilish, jamoada namunali bo'lish;
- ta'lim muassasasining tarbiyaviy tizimidagi tayanch pedagoglardan biri sifatida o'ziga birlashtirilgan sinfdagi o'quvchilarning amalda belgilangan ta'lim va tarbiya olishlarini tashkil etish;
- o'quvchilarning o'sib-ulg'ayishlarini pedagogik kuzatuvlar asosida nazorat qilish, yordamga muhtoj o'quvchilarga yakka holda yondashish asosida ular qalbida milliy g'urur, vatanparvarlik, mehr-oqibat, mas'uliyat, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik kabi xislatlarni uyg'otish;
- voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosi borasida voyaga yetmaganlarning nazoratsiz va qarovsiz qolishlari, o'quvchilar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha o'tkaziladigan "O'quvchi", "Davomat" kabi profilaktik reydlarda hamkorlik qilish

## **Sinf rahbarlari o'zlariga yuklatilgan asosiy vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:**

- har tomonlama yetuk, barkamol - ma'naviy, aqliy, jismoniy rivojlangan shaxs tarbiyasini amalga oshirish, sinf o'quvchilarining qobiliyatlarini to'liq namoyon etishlari uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish;
- pedagog jamoa hamkorligida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlariga qarab yondashishni yo'lga qo'yish
- ertalabki saflanishlarda sinf o'quvchilarining belgilangan tartibda to'liq ishtirok etishlarini ta'minlash
- birlashtirilgan sinf xonasidagi mavjud jihozlarning saqlanishini va ulardan samarali foydalanishni ta'minlash
- sinf rahbarlari o'z faoliyatini o'quvchilarning yosh xususiyatlari, umumiy rivojlanish darajasi va qobiliyatlarini hisobga olgan holda, keng qamrovli tarbiyaviy ishlar va aniq mezonlar asosida tashkil etadi

## **Faoliyat yo'nalishlari**

### **Vatanparvarlik ruhida arbiyalash**

- o'quvchilarni Vatani va xalqiga sadoqat, fidoyilik, Davlat ramzlariga hurmat ruhida tarbiyalash
- o'quvchilar ongiga buyuk ajdodlarimiz merosi va xalqimizning bugungi bunyodkorlik ishlariga yuksak ehtirom tuyg'ularini singdirish
- sinfda o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muhitini yaratish
- topa oladigan shaxs sifatida shakllanishlari uchun zarur ko'nikmalarni rivojlantirish
- o'quvchilarni o'zbek va boshqa xalqlarning madaniy, milliy an'analariga hurmat ruhida tarbiyalash

### **Ota-onalar va mahalla bilan hamkorlik**

- barkamol avlodni tarbiyalashda "Oila - mahalla - ta'lim muassasasi" hamkorligidagi jamoat kengashi faoliyatini keng tatbiq etish
- o'quvchilarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilash
- o'quvchilarning ta'lim muassasasiga belgilangan maktab formasida kelishlarini nazorat qilish
- o'quvchilarning kundalik.com elektron platformasidan foydalanishini nazorat va tahlil qilish, o'quv qurollarining mavjudligi va to'g'ri tartibli saqlashlarini kuzatib borish, natijalarini ota-onalar bilan muhokama qilish
- o'quvchilarning turli salbiy diniy oqimlar ta'siriga tushib qolishining oldini olish, ularda bu borada immunitet shakllanishi uchun targ'ibot ishlarini olib borish
- ota-onalar bilan hamkorlikda ota-onalar majlislari, davra suhbatlari, muloqotlar uyushtirish
- darslarga surunkali va muntazam kelmaydigan, tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan ishlashda ularning ota-onalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishvahuquq-tartibot organlari bilan hamkorlik qilish

### **O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, maktabdan va sinfdan tashqari faoliyatga jalb etish:**

- o'quvchilarning qiziqishi, imkoniyati va qobiliyatlariga qarab fan
- to'garaklari, sport seksiyalari, badiiy-estetik, texnik, ekologik, sayyohlik va o'lkashunoslik yo'nalishidagi to'garaklarga, klublarga jalb qilish
- qobiliyatli va iste'dodli o'quvchilarni rag'batlantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga ko'maklashish
- milliy madaniyatning asosi bo'lgan musiqa va qo'shiq, kino, adabiyot, xalq og'zaki ijodi, teatr, naqqoshlik va me'morchilik kabi xalq amaliy san'ati turlari vositasida o'quvchilar dunyoqarashini kengaytirish
- o'quvchilarni yozgi sog'lomlashtirish oromgohlarida dam olishini tashkil etish, kuzgi, qishki va bahorgi ta'til kunlarini mazmunli o'tkazishi uchun ota-onalar bilan hamkorlikda sharoit yaratish
- turli (bayramlar, ko'rik-tanlov, sport musobaqalari, uchrashuvlar, kechalar va boshqalar] ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda sinf o'quvchilarining faol ishtirokini ta'minlash

**O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab  
ta’limi vazirining 2024-yil 23-avgustdagi 273-son  
buyrug‘iga 7-ilova**

**“TASDIQLAYMAN”:**

Maktab MMIBDO‘: \_\_\_\_\_

**“Sinf soati” mashg‘ulotlarining 20\_\_-20\_\_-o‘quv yili uchun o‘quv-mavzu rejasi  
5–SINF**

<b>№</b>	<b>O‘tiladigan mavzular</b>	<b>Soat</b>	<b>Rejada</b>	<b>Amalda</b>
1	Taraqqiyot odimlari	1		
2	Ona tabiyatni asraylik (Butunjahon yovvoyi tabiat jamg‘armasi tashkil topgan kun topgan kun munosabati bilan)	1		
3	Beshinchi sinf o‘quvchisi bo‘lish osonmi?	1		
4	Jahonda bo‘lmasa muallim agar, hayot ham bo‘lmasdi go‘zal bu qadar (1- oktabr – O‘qituvchilar va murabbiylar kuni munosabati bilan)	1		
5	Sog‘lom turmush tarsi va zararli odatlarning oldini olish	1		
6	Ona tilim - davlat tilim (O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilingan kun munosabati bilan).	1		
7	Transport vositalarining harakati (Yo‘l harakati qoidalari).	1		
8	Jamoa bo‘lish zavqi (Team building – jamoaviylikni shakllantirish)	1		
9	Yo‘l chiziqlari va ularning vazifalari.(Yo‘l harakati qoidalari)	1		
10	Bizning kuchli va zaif tomonlarimiz	1		
11	Bayrog‘imiz – faxrimiz, g‘ururimiz (18-noyabr – O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i qabul qilingan kun munosabati bilan).	1		
12	Yo‘l harakati qoidalaridagi asosiy tushuncha va atamalar (Yo‘l harakati qoidalari).	1		
13	Huquqiy madaniyat – komil inson belgisi (8-dekabr – Konstitutsiya qabul qilingan kun munosabati bilan).	1		
14	Madhiyam faxrim mening (10-dekabr - O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi qabul qilingan kun munosabati bilan).	1		
15	Tartibga soluvchining ishoralari (Yo‘l harakati qoidalari).	1		
16	Hamma kasblar kerak, hamma kasblar muhim	1		
17	Tinchlik va osoyishtaligimiz garovi (14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan).	1		
18	Mening hissiyotlaim	1		
19	Yo‘l harakati qoidalari nima uchun kerak? (Yo‘l harakati qoidalari)	1		
20	Inson qalbining quvonch-u qayg‘usi kuychisi (G‘azal mulkingning sulтони Alisher Navoiy tavallud topgan kun munosabati bilan).	1		
21	Vatan sog‘inchi ila yashagan siymo (Shoh va shoir Z.M.Bobur tavallud topgan kun munosabati bilan)	1		
22	O‘z xarakterimiz xususida suhbatlashamiz	1		
23	Tejamkorlik – farovonlik manbai.	1		
24	Har doim sog‘ bo‘lsin onam! (8 mart – Xotin-qizlar kuni munosabati bilan).	1		
25	O‘quvchi va mobil telefon.	1		
26	Navro‘z – mehr-oqibatni ulug‘lovchi qadriyat (21-mart – Navro‘z bayrami munosabati bilan).	1		
27	Amir Temur – komillik namunasi (Sohibqiron Amir Temur tavallud topgan kun munosabati bilan).	1		
28	Pozitiv fikrlash.	1		
29	Maxsus avtomobil va mototsikllar haqida suhbat (Yo‘l harakati qoidalari).	1		
30	Qahramonlik, burch va fidoiylik (Xotira va qadrlash kuni oldidan).	1		
31	Birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish (Yo‘l harakati qoidalari).	1		
32	Kitobdan yaxshi do‘st bo‘lmas.	1		
33	Buyuruvchi belgilar (Yo‘l harakati qoidalari)	1		
34	Yoz-o‘tadi soz!	1		



Sana: “ ” \_\_\_\_\_ 20 \_\_-yil. Sinfi: \_\_\_\_\_ Sinf rahbari: \_\_\_\_\_

### 1-Mavzu: Taraqqiyot odimlari

**Mustaqillik shiori:** Bir bo'lsak – yagona xalqimiz, birlashsak – Vatanimiz!

#### I. Kirish:

**Sinf soati mashg'ulotning maqsadi:** o'quvchilarga mustaqillik bayrami va uning mazmun mohiyatiga oid bilimlar berish.

Yosh avlod qalbida vatanparvarlik tuyg'ularini o'stirish. Mustaqillik, erkinlik, O'zbekiston muqaddas makon, Vatanga hurmat, qadriyatlarini ulug'lash, o'zlikni anglash tuyqularini shakllantirish. O'quvchilarni mustaqillik, erk va vatanparvarlik haqidagi dunyoqarashlarini o'stirish.

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:** televizor, radiyo, telefon orqali berilgan xabarlarni gapirib bera olish.

**O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi:** kattalarni hurmat qilish, ularning nasihatiga amal qilish, jamoat joylarga o'zini tuta bilish.

**Milliy va umummadaniy kompetensiyasi:** milliy bayramlarni, milliy qadriyatlarini, o'zi yashab turgan tarixiy obidalarni bilish va bir-biridan farqlash.

**Mashg'ulot turi:** yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi, amaliy, nazariy, aralash, noan'aviy, ananaviy.

**Mashg'ulot uslubi:** tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko'rgazmali va boshqalar.

**Mashg'ulot metodi:** guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko'rsam tezroq o'rganaman”, “muammo va yechim” shu kabi metodlar.

**Mashg'ulot jihozi:** mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

#### Mashg'ulotning borishi:

**Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**Uyga vazifani so'rash:** a) Savol – javob o'tkazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

**II. Asosiy qism:** 1-savol. Ushbu rasmlardan foydalanib, mustaqillik so'ziga izoh berishga harakat qiling (1-rasm, O'zbekistonda ishlab chiqilgan mahsulotlar, maktab va o'quvchilari, ekin maydonlari, tarixiy obidalar, bayram tantanalarining rasmi)

O'quvchilarning javoblarini o'qituvchi umumlashtiradi va ushbu savolga quyidagicha xulosa qiladi.

Mustaqillik - bizga nafaqat iqtisodiy imkoniyatlar, balki ma'naviy tiklanish imkoniyatini ham berdi. Biz mustaqil davlat sifatida o'zimizning ichki va tashqi siyosatimizni belgilab oldik. Mustaqillik tufayli unutilayotgan qadriyatlarimiz tiklandi, sayqal topdi. Mustaqillik bu eng avvalo huquqdir. Ya'ni ushbu so'zning zamirida katta va ulug' huquqga ega bo'lish degan tushuncha mujassam.

2-savol. deganda nimani tushunasiz?

O'quvchilarning javoblarini o'qituvchi umumlashtiradi va ushbu savolga quyidagicha xulosa qiladi.

Biz mehr va muhabbatni, sadoqat va fidoiylikni munis onalarimizdan, bebaho Vatanimizdan olamiz.

Uning baxtu saodati, yorug' istiqboli, farovon kelajagi uchun yashash, kurashish, kerak bo'lsa, jonini fido qilish shu muqaddas zaminda yashayotgan har bir inson uchun baxtdir.

3-savol. Nima uchun “Tinchlik uchun kurashmoq kerak” deyiladi? Hech o'ylab ko'rganmisiz?

O'quvchilarning javoblarini o'qituvchi umumlashtiradi va ushbu savolga quyidagicha xulosa qiladi.

Biz uchun, yurtimiz uchun tinchlik va osoyishtalik hamma narsadan qadrlı, tinchlik uchun kurashish, bu hayotni o'zimiz himoya qilishimiz kerak. Himoya degani - avvalo, ogoh bo'lish degani. Hushyorlik ogoh bo'lib yashash - bu kundalik yoki bir oylik mavsumiy masala emas, balki, kundalik ish, kundalik harakat bo'lishi lozim.



#### III. Yakuniy qism:

Dars yakunida o'quvchilar bilan birgalikda olgan bilimlarni umumlashtirilib, savollar bilan mustahkamlanadi. O'quvchilar rag'batlantiriladi.

Maktab MMIBDO' \_\_\_\_\_ sana \_\_\_\_\_ 20\_\_yil



Sana: “ ” \_\_\_\_\_ 20 \_\_-yil. Sinfi: \_\_\_\_\_ Sinf rahbari: \_\_\_\_\_

**2-mavzu: Ona tabiatni asraylik** (Butunjahon yovvoyi tabiat jamg'armasi tashkil topgan kun topgan kun munosabati bilan)

### I. Kirish:

**Sinf soati mashg'ulotning maqsadi:** O'quvchilarga fan oyligida e'tiborni kuchaytirish, qalbida tabiatga mehr-muhabbat uyg'otish, uni kelgusi avlodlarga sog'lom holda yetkazish, bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri ekanligini, tabiatni asrab-avaylash tuyg'ularini ular ongiga singdirish.

Natija: O'quvchilarning erkin fikrlashi, tassurotlari va olgan xulosasi.

**Kommunikativ kompetensiya** — muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantiradi

**Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi** — media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantiradi

**Mashg'ulot turi:** yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi, amaliy, nazariy, aralash, noan'aviy, ananaviy.

**Mashg'ulot uslubi:** tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko'rgazmali va boshqalar.

**Mashg'ulot metodi:** guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko'rsam tezroq o'rganaman”, “muammo va yechim” shu kabi metodlar.

**Mashg'ulot jihozi:** mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

### Mashg'ulotning borishi:

#### Tashkiliy qism:

a) Salomlashish.

b) Davomatni aniqlash.

**Uyga vazifani so'rash:** a) Savol – javob o'tkazish.

b) Topshiriqlarni tekshirish.

#### II. Asosiy qism:


O'qituvchi: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida “Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralari umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir” deyiladi.

Ma'lumki, inson tabiatga beparvo, bo'lib unga g'amxo'rlik qilmasa, ekologiya buziladi, hayvonot dunyosi qiriladi. Shu bois go'zal va betakror tabiatni ardoqlash uni ko'z qorachig'iday asrash, tabiat ne'matlaridan oqilona foydalanish ham farz ham qarzdur.

Insonning tabiatga notog'ri munosabati natijasida ko'plab o'simlik va hayvonlar yo'qolib ketdi va bugun ham yo'qotishlar davom qilmoqda.

“Tabiat - tiriklik sharti”- Shunday ekan, tabiatga befarq qaramasligingiz lozim.

Inson tabiatni qo'riqlash barobarida mamlakatimiz rivojiga hissa qo'shadi. Shunday ekan, o'quvchilar qalbida tabiat ne'matlarini – boyliklarini qo'riqlash, ularni avaylab asrash hislarini rivojlantirish, tabiatga mehr-muhabbatli qilib tarbiyalash o'qituvchilardan chuqur bilim, izlanish va ijodkorlikni talab qiladi.



Topshiriq: Guruhlarga tabiatga oid so'zlardan “Guldasta” tuzish mashqi qo'llanadi.

Izoh: O'qituvchi jarayonni kuzatishda samimiylikka, o'quvchilarning o'zlarini odob-axloq me'yorlariga e'tiborli bo'lishlikka, faollikka va jonkuyarlikka undab boradi.

#### III. Yakuniy qism:

Dars yakunida o'quvchilar bilan birgalikda olgan bilimlarni umumlashtirilib, savollar bilan mustahkamlanadi. O'quvchilar rag'batlantiriladi.

Maktab MMIBDO' \_\_\_\_\_ sana \_\_\_\_\_ 20 \_\_yil

Sana: “ ” \_\_\_\_\_ 20\_\_-yil. Sinfi: \_\_\_\_\_ Sinf rahbari: \_\_\_\_\_

### 3-mavzu: Beshinchi sinf o‘quvchisi bo‘lish osonmi?

#### I. Kirish:

**Sinf soati mashg‘ulotning maqsadi:** O‘quvchilarda vatanparvarlikni singdirish, atrof-muhitga bo‘lgan mehrlarini va qiziqishlarini rivojlantirish.

Natija: O‘quvchilarning erkin fikrlashi, tassurotlari va olgan xulosasi.

**O‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi** — doimiy ravishda o‘z-o‘zini jismoniy, ma’naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayoti davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish, va mustaqil qaror qabul qila olish ko‘nikmalarini egallaydi

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi** — jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, va huquqiy madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini shakllantiradi

**Mashg‘ulot turi:** yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi, amaliy, nazariy, aralash, noan‘aviy, ananaviy.

**Mashg‘ulot uslubi:** tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko‘rgazmali va boshqalar.

**Mashg‘ulot metodi:** guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman”, “muammo va yechim” shu kabi metodlar.

**Mashg‘ulot jihozi:** mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

#### Mashg‘ulotning borishi:

**Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**Uyga vazifani so‘rash:** a) Savol – javob o‘tkazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

#### II. Asosiy qism:

O‘qituvchi o‘quvchilarga endi yoshlari yana bir yoshga ulg‘ayganlarini, boshlang‘ich sinf va yuqori sinf o‘quvchilarining farqini, o‘zlarini tuta bilishlari, odob-axloq qoidalari haqida tushunchalar berdi. Bu yana bir yangi hayotga yangi qadam ekanligi haqida gapirib o‘tdi. 5-sinfda va boshlang‘ich sinflardagi fanlarning farqini, dars soatlarini ko‘payishi haqida ham to‘xtalib o‘tdi.

Endi o‘quvchilar turli xil tanlov va tadbirlarda ishtirok etib o‘zlarini sinab ko‘rishlari mumkinligi haqida to‘xtalib, Navoiylik 5-sinf o‘quvchisi Anora 2021-yilning 4-mart kuni o‘tkazilgan IELTS imtihonidan Listening 5,5, Reading 5,5, Writing 6,0 Speaking 6,0 ballarini to‘plagan va umumiy natija sifatida 6,0 ballni qo‘lga kiritganligini aytib o‘tdi



#### III. Yakuniy qism:

Dars yakunida o‘quvchilar bilan birgalikda olgan bilimlarni umumlashtirilib, savollar bilan mustahkamlanadi. O‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Maktab MMIBDO‘ \_\_\_\_\_ sana \_\_\_\_\_ 20\_\_yil

**veb-saytimiz: [Zokirjon.com](http://Zokirjon.com)**

*Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.*

**Zokirjon Admin bilan**

*90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga telegram orqali bog'lanishingiz yoki nza456, nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.*

*Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi.*

**O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 23-avgustdagi 273-sonli buyrug'i 7-ilova asosida tayyorlangan**

**40 listdan iborat 5-sinf Sinf soatini to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.**




**Telegram kanalimiz:**

**@Maktablar\_uchun\_hujjatlar**

**To'lov uchun: HUMO 9860230104973329**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



**DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet orqali veb-saytlarga joylamang.

Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA**

**HIYONAT QILMANG.**

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!***  
***Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud***

- 1. 1-11-Sinflar uchun sinf soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16.Ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**